



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



ANDIJON VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024- yil
yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-iyun)

70,1 %



**Xizmatlar sohasidagi
korxona va
tashkilotlar
ulushi**

3 496,0
ming so'm




**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi**

65,1 %




**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi**



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
(1- iyul holatiga ko'ra)

2024

70,1 %

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

62,3 %

2020

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar
(yanvar-iyun)

64,9 %


2024

Jami yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

2020

46,2 %

Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1-iyul holatiga ko'ra)

Soni, birlikda

2024

14 669

2023

14 962

2022

21 261

2021

19 708

2020

16 491

63,7 %

2024



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

2020

56,3 %



Soni, birlikda

2024

1 450

2023

1 450

2022

1 597

2021

1 742

2020

2 058

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-iyun)

2024

63,6 %

Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi

2020


45,7 %



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyun)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024- yil yanvar-iyun)




¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-iyun)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Viloyat bo'yicha jami	11 919,2	100,0	113,7
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	4 369,3	36,7	114,9
Xonobod sh.	273,3	2,3	114,2
Oltinko'l	511,5	4,3	113,7
Andijon	721,3	6,1	113,6
Baliqchi	634,2	5,3	112,8
Bo'ston	206,4	1,7	112,5
Buloqboshi	393,9	3,3	113,2
Jalaquduq	543,1	4,6	113,3
Izboskan	558,9	4,7	113,5
Ulug'nor	177,4	1,5	113,1
Qo'rg'ontepa	575,4	4,8	112,3
Asaka	780,1	6,5	111,6
Marhamat	507,7	4,3	111,9
Shahrixon	658,2	5,5	114,0
Paxtaobod	458,6	3,8	113,4
Xo'jaobod	549,9	4,6	113,5

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-iyun)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-iyun)


	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Andijon viloyati	3 496,0	111,4%
Andijon shahri	9 031,3	111,9%
Xonobod shahri	5 941,3	112,2%
Oltinko'l	2 657,1	112,2%
Andijon	2 508,2	111,1%
Baliqchi	2 926,4	110,5%
Bo'ston	2 639,3	110,1%
Buloqboshi	2 562,8	110,8%
Jalaquduq	2 720,8	111,2%
Izboskan	2 180,7	111,3%
Ulug'nor	2 770,0	111,6%
Qo'rg'ontepa	2 487,6	110,2%
Asaka	2 188,3	109,3%
Marhamat	2 713,6	109,6%
Shahrixon	2 019,5	111,5%
Paxtaobod	2 188,2	111,0%
Xo'jaobod	4 559,8	110,9%

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-iyun)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **65,5** foizni, shu jumladan, **16,3** foizini kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-iyun)




Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-iyun)


Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	11 919,2	100,0	113,7
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	590,3	5,0	112,4
Moliyaviy xizmatlar	2 565,7	21,5	120,0
Transport xizmatlari	2 247,6	18,9	113,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 130,0	17,9	114,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	238,6	2,0	110,3
Savdo xizmatlari	3 549,9	29,8	110,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	286,1	2,4	107,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	603,9	5,1	116,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	212,1	1,8	109,5
Ijara xizmatlari	236,0	2,0	105,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	278,2	2,3	110,5
Shaxsiy xizmatlar	611,1	5,1	111,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	107,3	0,9	128,5
Boshqa xizmatlar	392,5	3,3	119,4

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyun)



Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024- yil yanvar-iyun)

Yordamchi moliyaviy faoliyat



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar-iyun oylarida 85,5** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **29,4** foizni yoki **755,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan Xo'jaobod tumanida yuqori o'sish sur'ati **119,9** foizni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **94,8** foiz.

Andijon shahrida transport xizmatlari hajmi **895,9** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **114,8** foizni tashkil etgan.

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyun)



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar-iyun)

Andijon viloyati	2 247,6	113,4%
Andijon shahri	895,9	114,8%
Xonobod shahri	71,5	113,6%
Oltink'ol	78,5	113,1%
Andijon	97,7	113,3%
Baliqchi	161,2	111,5%
Bo'ston	32,1	112,2%
Buloqboshi	81,1	112,0%
Jalaquduq	98,8	113,5%
Izboskan	100,9	109,7%
Ulug'nor	30,9	113,2%
Qo'rg'ontepa	77,7	112,6%
Asaka	120,1	112,9%
Marhamat	105,0	112,7%
Shahrixon	101,9	112,8%
Paxtaobod	96,8	113,0%
Xo'jaobod	97,5	113,4%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

○ O'sish sur'ati

2024- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **81,9** foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyun)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-iyun)



Andijon viloyati	3 549,9	110,6%
Andijon shahri	1 364,0	111,9%
Xonobod shahri	81,0	110,8%
Oltinko'l	191,4	110,7%
Andijon	221,2	110,1%
Baliqchi	170,7	109,6%
Bo'ston	64,3	108,8%
Buloqboshi	108,3	109,9%
Jalaquduq	159,1	109,5%
Izboskan	122,9	109,8%
Ulug'nor	33,0	109,7%
Qo'rg'ontepa	177,0	109,3%
Asaka	236,5	108,5%
Marhamat	138,1	109,1%
Shahrixon	184,4	111,1%
Paxtaobod	121,4	110,0%
Xo'jaobod	176,7	110,6%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda

O'sish sur'ati


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyun)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. 2024- yilning yanvar-iyun oylaridagi ulushi **95,2 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-iyun)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-iyun)




2024-yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **603,9** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **116,2 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar


(2024- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)



Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Andijon shahriga to'g'ri keladi. **2024 yil yanvar-iyun** oylarida mazkur hududda ushbu xizmat turi hajmi **276,0** mlrd so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **6,3 %** ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyun)

2024- yil
yanvar-iyun oylarida sog'ilqni saqlash xizmatlari hajmi **212,1** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,8 %** ini tashkil etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-iyun)

Andijon viloyati	212,1	109,5%
Andijon shahri	75,7	109,3%
Xonobod shahri	7,2	112,8%
Oltink'ol	5,3	111,6%
Andijon	9,4	109,8%
Baliqchi	7,6	109,6%
Bo'ston	3,9	110,3%
Buloqboshi	6,0	109,5%
Jalaquduq	12,6	108,7%
Izboskan	10,0	109,0%
Ulug'nor	4,2	111,3%
Qo'rg'ontepa	13,3	109,1%
Asaka	17,5	109,9%
Marhamat	12,0	107,7%
Shahrixon	11,5	109,7%
Paxtaobod	7,1	108,9%
Xo'jaobod	8,8	109,4%

■ Hajmi, mlrd so'mda ✦ O'sish sur'ati

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾


(yanvar-iyun)



2024- yil yanvar-iyun oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **286,1 mlrd.** so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2024- yil yanvar-iyun)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

 Hajmi, mlrd so'mda


 O'sish sur'ati

2024- yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **2,0 %** ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **86,5** foiz.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyun)



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-iyun)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyun)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)




2020-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **236,0** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **2,0** % ni tashkil etdi.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyun)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 15,4 foizini tashkil etadi.


Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-iyun)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-iyun)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)

Andijon viloyati.	107,3
Andijon shahri	42,8
Xonobod shahri	2,3
Oltinko'l	3,2
Andijon	4,0
Baliqchi	3,5
Bo'ston	4,2
Buloqboshi	2,9
Jalaquduq	3,5
Izboskan	5,6
Ulug'nor	3,1
Qo'rg'ontepa	6,6
Asaka	6,9
Marhamat	4,3
Shahrixon	4,6
Paxtaobod	5,6
Xo'jaobod	4,2

2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **63,9** mlrd so'mga oshib, **107,3** mlrd so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **39,9** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 74 228-30-83